

ARAB TILIDA KO'PLIKNING YASALISHI

Olimjonova Jasmina Qobilovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi son kategoriyasi ko'plik shakllarining grammatik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada bu shakllarning morfologik tuzilishi, jumladagi o'rni va ularning ot bilan moslashuvi kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot arab tilidagi son kategoriyasini o'rganayotgan talabalar uchun foydali bo'lib, nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan boyitadi.

Kalit so'zlar: ko'plik, to'g'ri ko'plik, siniq ko'plik, gramatika, son kategoriyasi.

Abstract . This article analyzes the grammatical and semantic features of the plural forms of the number category in the Arabic language. The article examines aspects such as the morphological structure of these forms, their place in the sentence, and their agreement with nouns. The study is useful for students studying the number category in the Arabic language and enriches theoretical knowledge with practical examples.

Keywords: plural, proper plural, imperfect plural, grammar, number category.

Arab tili dunyodagi eng boy va murakkab tillardan biri bo'lib, uning grammatikasi ko'p jihatdan chuqur tahlilni talab qiladi. Arab tili grammatikasida son kategoriyasi o'ziga xos o'rin tutadi. Arab tilida son shakllari uch asosiy turga bo'linadi: birlik (المفرد), ikkilik (المثنى) va ko'plik (الجمع). Bu shakllar o'zining lug'aviy ma'nosi va grammatik vazifasi bilan arab tilining morfologik tizimini boyitadi. Mazkur maqola arab tili son kategoriyasining ko'plik (الجمع) shakllarini, ma'noviy turlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan.

Arab tilida ismlarning ko'plik shakli yasalishiga ko'ra 2 turli: "siniq ko'plik -

”السَّالِمُ الْجَمْعُ - to‘g‘ri ko‘plik” bo‘ladi.

Siniq ko‘plik - الْمَكْسَرُ الْجَمْعُ. Ismdan siniq ko‘plik yasashda uning o‘zagiga boshqa shakl yasovchi undosh va unlilar qo‘shilib uning birlik sondagi shakli boshqa shaklga o‘zgaradi¹⁶⁵. “Siniq ko‘plik” deb atalishiga sabab ham shu. Siniq ko‘plik shakllari xilma-xil va ko‘p sonlidir. Siniq ko‘plik so‘z vaznini o‘zgartirish orqali yasaladi¹⁶⁶. Birlik sonda bir vaznda bo‘lgan so‘zning ko‘pligi har xil vaznda bo‘lishi yoki birlikda har xil vaznda bo‘lgan so‘zlarning ko‘pligi bir xil vaznda bo‘lishi mumkin. Uning ba’zi shakllari tanvin dammaga, ba’zilari esa dammaga tugaydi:

دَرْسٌ - دَرْسٌ	dars- darslar	كِتَابٌ - كُتُبٌ	kitab- kitoblar
قَدِيمٌ - قَدِيمٌ	qadimgi- qadimgilar	حَدَائِقُ - حَدِيقَةٌ	boğ- boğlar

Ismlarning siniq ko‘plik shakllari lug‘atlarda beriladi. Lug‘atda beriladi. Lug‘atda ismning siniq ko‘pligi berilmagan bo‘lsa, undan faqat to‘g‘ri ko‘plik yasaladi.

Shaxsni bildirmaydigan ismlarning ko‘pligi gramatik jihatdan birlik muannasga teng bo‘ladi. Masalan:

نَافِعَةُ الْكُتُبِ - Kitoblar foydali	عَرِيضَةُ الشَّوَارِعِ - Ko‘chalar keng
--	---

To‘g‘ri ko‘plik - السَّالِمُ الْجَمْعُ. To‘g‘ri ko‘plik yasashda isming oxiriga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda birlik shakli o‘zgarmaydi.

Muzakkar jinsidagi to‘g‘ri ko‘plik odamni va uning kasbi-korini bildiradigan so‘zlardan, “ة” (“ta marbuta”) ga tugamagan va oxirida ikkilik son qo‘shimchasi bo‘lmagan so‘zlardan hosil qilinadi.

Muzakkar jinsdagi, odamni va uning kasbi-korini bildiradigan so‘zlarning ko‘pligi uning oxiriga "ون" qo‘shimchasini va muannas jinsidagi so‘zlarning ko‘pligi uning oxiriga "ات" qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilinadi. Bu yerda ham ة harfi ت ga aylanadi. Muzakkar jins tug‘ri ko‘plikdagi so‘zlar ال artikli olganda kelishik qo‘shimchalari o‘zgarmaydi. To‘g‘ri ko‘plik, muannas jinsdagi ism ال artiklini olganda tanvini tushib qoladi:

¹⁶⁵ M. Hasanov. Arab tili (o‘quv qo‘llanma), - Toshkent: Invest book, 2025. – 54 b.

¹⁶⁶ A. Abdujabborov. Arab tili (darslik), - Toshkent: Tafakkur, 2020. – 72 b.

o‘qituvchilar - مُدَرِّسُونَ ← أَلْمُدَرِّسُونَ

tikuvchilar - خَيَّاطُونَ ← أَلْخَيَّاطُونَ

o‘qituvchi ayollar - مُدَرِّسَاتُ ← أَلْمُدَرِّسَاتُ

tikuvchi ayollar - خَيَّاطَاتُ ← أَلْخَيَّاطَاتُ

o‘qituvchi - مُدَرِّس

tikuvchi - خَيَّاط

o‘qituvchi (ayol) - مُدَرِّسَة

tikuvchi (ayol) - خَيَّاطَة

To‘g‘ri muzakkar ko‘plik - السَّالِمُ الْمَذَكَّرُ جَمْعٌ - faqat erkak jinsidagi odam (العاقل - oqil, aqlli)larni bildirgan so‘zlar uchun ishlatiladi. To‘g‘ri muannas ko‘plik — جَمْعٌ esa ayol jinsidagi odamlar, jonzotlar va jonsiz emaslar uchun ishlatilishi mumkin¹⁶⁷.

G‘ayri oqilni anglatuvchi muzakkar va muannas jinsdagi aksariyat so‘zlarning ko‘pligi ham muannas jins to‘g‘ri ko‘pligida hosil qilinadi:

hayvon — hayvonlar → حَيَوَانَاتُ

imtihon — imtihonlar → اِمْتِحَانَاتُ

Eslatma: الif maqsura (ى) ga tugagan muzakkar jinsdagi so‘zlarga tug‘ri ko‘plik hosil qilinayotganda ال olib qo‘yilib, undan oldin kelgan (fatha) saqlanadi:

a‘lolar → الْأَعْلَوْنَ; eng baland; a‘lo → الْأَعْلَى

eng pastlar; pastlamar → الْأَدْنَوْنَ; eng past → الْأَدْنَى

Hamza (ء) yoki alif maqsura (ى) bilan tugagan muannas jinsdagi so‘zlarning to‘g‘ri ko‘pligi hosil qilinayotganda hamza و ga va alif maqsura ې ga aylanadi:

ذَكَرَى - ذِكْرَيَاتُ ← xotiralar

حُسْنَاءُ - حُسْنَيَاتُ ← go‘zallar

Shuningdek, arab tilida ko‘plik shakli ma’nosiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Kam miqdor ko‘plik shakli (الْقَلَّةُ جَمْعٌ);
2. Ko‘p miqdor ko‘plik shakli (الكثرة جمع)

Kam miqdor ko‘plik shakli - 10 va undan oz sonlar uchun ishlatiladigan jamdir. Uning 6 ko‘rinishi bor:

1. قول جم أقوال - أفعال

2. كلب جم أكلب - أفعال

3. عوان جم أعونة - فعلة

¹⁶⁷ N. Ibrohimov, M. Yusupov, A. Oripov. Arab tili gramatikasi (1-jild), - Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2024. – 38 b.

4. جمع غلّة - فعلة

5. المسلمون qo'shimchasi qo'shilmagan jam muzakkar solim.

6. المسلمات qo'shimchasi qo'shilmagan jam muannas solim.

Jam kasra - 10 dan ko'p son uchun ishlatiladigan jamdir¹⁶⁸. Uning ko'rinishi "jam qilla"dan boshqalaridir. Misol:

كِتَاب (kitob) → كُتِبَ (ko'plab kitoblar)

رَجُل (erkak) → رَجَال (ko'plab erkaklar)

طَالِب (talaba) → طُلَّاب (ko'plab talabalar)

Arab tili gramatikasida son kategoriyasi o'ziga xos o'rin tutadi. Son kategoriyalarining ko'plik shakllari tilning boy morfologik tizimini aks ettiradi. Arab tilida ko'plik shakllari 2 qismga bo'linadi: to'g'ri va siniq ko'plik. Bundan tashqari kam miqdorni va ko'p miqdorni bildiruvchi ko'plik shakllari ham mavjud bo'lib, ular arab tili gramatikasining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Hasanov. Arab tili (o'quv qo'llanma), - Toshkent: Invest book, 2025. – 348 b.
2. A. Abdujabborov. Arab tili (darslik), - Toshkent: Tafakkur, 2020. – 304 b.
3. Б. Гранде. Курс арабской грамматики в сравнительно- историческом освещении, - Москва: Восточная литература, 2001. - 585 б.
4. A. Hikmatov. Durusul nahviyya, - Toshkent: Hilol nashr, 2022. – 400 b.
5. N. Ibrohimov, M. Yusupov, A. Oripov. Arab tili gramatikasi (1-jild), - Toshkent: G'afur G'ulom, 2024. – 328 b.
6. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN-NAHV" ASARIDA TIL O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.

¹⁶⁸ Б. Гранде. Курс арабской грамматики в сравнительно- историческом освещении, - Москва: Восточная литература, 2001. - 276 б.

7. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
8. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
9. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
10. Jo‘Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
11. TOSHMATOVA, S. (2025). Usage of Cooperative Exercises in Developing Writing Skills of EFL Students. *SHOKH LIBRARY*.
12. Mahmudova, S. (2024). SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.1. 1), 288-292.
13. Хамракулова, Ш. А. (2025, November). ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАМКАХ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. In *Conferences* (Vol. 1, No. 9, pp. 507-510).
14. Raxmonov, A. K. (2024). *Al-Farg‘oniyning «Usturlab yasash haqida kitob»ining Britaniya muzeyida saqlanayotgan “OR 5479” raqamli qo‘lyozma nusxasi. Til va adabiyot.uz*, 2024(1), 22–26.
15. Raxmonov, A. K. (2023). *Oliy ta’lim muassasalarida arab tilini o‘qitishning zamonaviy usullari*. In “Bir makon, bir yo‘l” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.
16. Raxmonov, A. K. (2025). *Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining o‘rganilishi. Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.